

# UZBEK STATE UNIVERSITY OF WORLD LANGUAGES

Department of Theoretical Disciplines of the  
French Language of the Faculty  
of Romano-Germanic Philology



## INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION  
of materials on topic:

## «CURRENT ISSUES IN ROMANO-GERMANIC LINGUISTICS»



TASHKENT - 2023



«ROMAN-GERMAN TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI» XALQARO  
ILMIY-TADQIQOT KONFERENSIYASINING ILMIY MAQOLA VA TEZISLARI  
TO'PLAMI. T.: UzDJTU-2023.

2023-yil 5 oktyabr

81'374.2

KBK 81.7

U 47

Xalqaro anjuman materiallaridan iborat mazkur to'plamga mutaxassislikka yo'naltirilgan chet tili ta'limining dolzarb mummolari, chet tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, fanda yaratilgan innovatsiyalar: tajriba va yutuq, tilshunoslikning dolzarb masalalari, mutaxassislik fanlarini o'qitishda xorijiy til va tarjimaning o'rni masalalariga oid maqolalar kiritilgan. Konferentsiya materiallarida soha olimlari: filologlar, adabiyotshunos va tilshunoslar, tarjimashunoslar bilan bir qatorda, shu jabhalarda ilmiy izlanishlarini olib borayotgan tadqiqotchilar, magistrantlar hamda bakalavriat bosqichi talabalarining tadqiqot natijalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan.

To'plam filologiya sohasi va nofilologik yo'nalishlarda chet tili o'qitishga qiziquvchi keng kitobxonlar va tadqiqotchilar ommasiga mo'ljallangan.

**MAS'UL MUHARRIRLAR:**

**Gulsanam RAXIMOVA** - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Adilbek XALILLAEV** - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german fakulteti dekani, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

**Jamoliddin YAKUBOV** - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**Dilrabo BAXRANOVA** - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**Yusuf ISMAILOV** - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

**TAHRIRIYAT HAY'ATI:**

**T. OLTIEV** – O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri, fil.fan.nom., dotsent.

**Z. DAVRONOVA** - O'zDJTU Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasini mudiri, katta o'qituvchi.

**G. KENJAEVA** – O'zJETU O'zDJTU Nemis tili amaliy fanlar kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

To'plam O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german fakultetining 2023 yil mart oyidagi №8 sonli majlisi bayonnomasi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

To'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni hamda sifatiga mualliflar mas'uldir.

**K.M. KHAZRATOVA.** METHODS OF ENSURING THE QUALITY OF MODERN LANGUAGE EDUCATION .....345

**Д.Р. ОТАМУРОДОВА, Ж.А. ЯКУБОВ.** ҲОЗИРГИ ЗАМОН ФРАНЦУЗ ТИЛИДА ДИАЛОГНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ .....349

**A.K. ХАЛИЛЛАЕВ.** ИСПАН ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА “НОМБРІА/МАРДЛИК” КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ .....354

**N.U. OCHILOVA.** COGNITIVE APPROACHES TO THE INTERPRETATION OF METAPHORS AND SIMILES.....360

**R.R. RADJABOV.** ORFOEPIYA VA ZAMONAVIY FRANSUZ TILINING ORFOEPIK NORMASI XUSUSIDA.....364

**M.K. BEGME TOVA.** FRANSUZ TILIDA FE'LLARNING MONO VA POLISEMANTIK XUSUSIYATLARI.....367

**S.O. SABIROVA.** LOTIN VA FRANSUZ TILLARIDA TIBBIY TERMINLARNING KELIB CHI QISH TADRIJI .....372

**M.M. MAMAJONOVA.** FRANSUZ VA O'ZBEK BADIY ASARLARIDA MUOMALA MADANIYATI.....374

**H.X. ТУРСУНОВА.** ОБ ИСТОКАХ ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМА.....377

**O.I. ADIZOVA.** FRANSUZ VA O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA MAROSIM FOLKLORINING MAVZUIY TURLARI.....381

**SH. ADAMBAYEVA, G.S. KURBONOVA.** SHOIRA JAHON OBRAZINING FRANSUZ VA O'ZBEK TILIDA BADIY TALQINI.....385

**5-SHO'BA**

**TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI, OG'ZAKI VA SINXRON TARJIMA MASALALARI**

\*\*\*\*\*

**SECTION 5**

**THEORY AND PRACTICE OF TRANSLATION, ISSUES OF ORAL AND SIMULTANEOUS TRANSLATION**

**U.V. BACHMANOVA, O.V. GONCHAROVA.** ОСОБЕННОСТИ ПРИЁМОВ ПЕРЕВОДА ОНОМАСТИЧЕСКИХ РЕАЛИЙ.....389

**Ю.А. МАМАДИЯРОВА.** ТАРЖИМАШУНОСЛИҚДА ЭКФРАСИС ФЕНОМЕНИ.....393

**A. МАМАДАЛИЕВ.** АНИМИЗМ И ПРЕДМЕТНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ .....398

**M.M. JO'RAYEVA.** GAZETA SARLAVHALARINUNG PRAGMATIK IMKONIYATINI IFODALOVCHI LINGVISTIK BELGILAR .....402

**H.B. КУЛДАШОВА.** ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА «ФУТБОЛ» ФРЕЙМИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ .....407

**D.O. SURZHKOVA, S.A. KHALEEVA.** LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF SPANISH-LANGUAGE FILM TITLES.....412

**M.T. HALIMOVA.** FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA GASTRONOMIK TERMINLARNING MUSHTARAK XUSUSIYATLARI.....416

**H.A. РАСУЛОВА.** ИНГЛИЗ ТИББИЁТ ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ОМОНИМИК ТЕРМИНЛАР КЛАССИФИКАЦИЯСИ ВА УЛАРНИНГ ЎРНИ.....420





## FRANSUZ VA O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA MAROSIM FOLKLORINING MAVZUIY TURLARI

**Adizova Obodon Istamovna**

professor, Filologiya fandari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Buxoro davlat universiteti.

E-mail: [obodon63@gmail.com](mailto:obodon63@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada fransuz va o‘zbek folklorshunosligida marosim folklorining mavzuiy turlari uning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, xususiyati va tuzilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Ikki noqardosh mamlakat folklorshunosligining boy tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega ekanligi yoritilgan. Marosimlarga xos, urf-odat, qadriyat, an’ana va milliylik tushunchalari o‘rganilgan

**Tayanch so‘zlar:** folklorshunos, xalq og‘zaki ijodi, mavsumiy, oilaviy, marosim, urf-odat, tarixiy, etnografiya, an’ana, milliylik, qadriyat

**Аннотация:** В данной статье представлены тематические типы обрядового фольклера французского и узбекистанского фольклера, его происхождение, эволюция, характеристики и структура. Подчеркивается, что фольклеристика двух небратских стран имеет богатые исторические этапы развития.

**Ключевые слова:** folklorist, folklor, sezonnii, semeyniy, obryad, obichay, istoricheskii, etnografiya, traditsiya, natsionalnost, sennost

**Abstract:** The article presents thematic types of ritual folklore in French and Uzbek folklore, its origin, evolution, characteristics and structure. It is highlighted that folklore studies of two non-fraternal countries have rich historical development

**Keywords:** folklorist, folklore, seasonal, family, ritual, custom, historical, ethnography, tradition, nationality, value.

Marosim dunyo xalqlari madaniyatining eng muhim shakllaridan biridir. U xalq san’ati va madaniyati shakllari orasida katta auditoriyani o‘ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar aniq bir belgilangan vaqtda takrorlanib turmasligi bilan boshqa urf-odat va an’analardan farq qiladi. Masalan, bir kishi har -yili belgilangan aniq bir kunda to‘y qilavermaydi, hayotning nafaqat yaxshi, balki yomon, qayg‘uli tomonlarini ham aks ettirishi, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalarga bir qadar daxlsizligi bilan bayramlardan ajralib turadi. Bayramlar xalqona va xalqaro ko‘rinish kasb etsa marosimlar esa bir oila, bir qavm yoki bir xalq doirasida o‘tkaziladi. [Adizova, 2023; 16]. Marosimlar o‘ziga xos kiyim-kechak, taom, irim-sirimlar, poetik aytilmalar, xatti-harakatlarga egaligi bilan ham bayramlardan farqlanib turadi. Ko‘pincha marosimlar o‘z maxsus tashkilotchisiga ega bo‘ladi. Masalan, to‘yda kayvoni, azada go‘yanda, yuvguchi, xatnada usta kabi va hokazo.

Marosimlar biror sababsiz yoki asossiz yuzaga kelmaydi. Ular maxsus uyushtiriladi. Marosimlar etnografik mohiyat kasb etib, xalqning ijtimoiy-madaniy munosabatlarini o‘zida aks ettirib turadi. Shu bilan birga ular xalqning qadimiy animistik, totemistik, fetishistik qarashlari hamda zardushtiylik va islomiy e’tiqodlari izlarini o‘zida saqlab qolgan. Xalqlarning ijtimoiy-

madaniy hayotini marosimlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan an'ana, urf-odat va bayramlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular turmushning alohida shakli hamda hayotning tarkibiy qismi sifatidagina namoyon bo'lib qolmaydi, balki har bir xalqning o'ziga xosligi, betakrorligini ifodalovchi milliy mentalitetini, binobarin, xalqning tarixan shakllangan milliy ruhiyatining asosini tashkil etadi, til va territorial yaxlitlik singari uning millat sifatidagi qiyofasini belgilaydi.

Bu xususiyat hatto tirikchilikning asosiy vositasiga aylangan mehnatga munosabatni ifodalovchi qator an'analar va ularning verbal qismini tashkil etuvchi aytim-ko'shiqlarda ham o'z o'rnini topgan. Shu xususiyatlari, qolaversa, o'tkazilish vaqti, o'rni, tarzi, tartibi, ijodkorlari, ishtirokchilari tarkibi va vazifalariga ko'ra marosim folklorini uchta katta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mavsumiy marosimlar folklori.
2. Oilaviy – maishiy marosimlar folklori.
3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori.

Folklor janrlari bu uch guruhga sig'mayotgandek tuyuladi va bu folklorning yozma adabiyotdan farq qiluvchi xususiyati hamdir. Gap shundaki, folklor janrlarining ayrimlari har xil marosimlar va mehnat turlari bilan uzviy aloqador bo'lsa, boshqalari kuylashga va o'ynab ijro etishga mo'ljallangan. Bu, o'z navbatida, janrlarga ularning ijro xususiyatlari va vazifalari nuqtai nazaridan ham yondashmoqni taqozo etadi. Shu jihatdan ularni yana ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

- a) marosim folklori janrlari:
- b) marosimga aloqasi bo'lmagan folklor janrlari.

Shuningdek, folklor asarlarining kimga mo'ljallanganligini hisobga olib ham ularni yana ikki guruhga-kattalar va bolalar folkloriga ajratish mumkin. Ammo bolalar folklori janrlarining (alla, erkalama, ovutmachiq, qiziqmachiq, qaytarmachiq, yalinchoq, hukmlagich, qiqillama, tegishmachiq, masxaralama, chorlama, cheklashmachiq, sanama, tarqalmachiq, tez aytish, chandish, guldur-gup va boshqalar) tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, hayotni tasvirlash shakli va qamrovi vazifasiga qarab uch adabiy turdan biriga kiritish mumkin. Binobarin, badiiy adabiyotning uch turga bo'linishini muayyan istisnolar bilan folklorga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi.

1. **epik** (asotir, mif, afsona, rivoyat, nakl, latifa, ertak, terma, doston va tarixiy qo'shiq),
2. **lirik** (marosim folklorining deyarli barcha janrlari, bolalar folklorining barcha janrlari, qo'shiqning hamma ichki xillari, ashula va boshqalar)
3. **dramatik** (og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, lof va boshqalar) turlar va ularga mansub janrlardan tarkib topgan yaxlit tizimdir.

Istisno esa, ayrim janrlarga taalluqlidir. Chunonchi, folklorshunoslikda «kichik janrlar» tarzida qaralib kelinayotgan maqol, topishmoq, irim va «yumuq» iboralar aslida paremik turga mansub hisoblansa-da, B.Sarimsoqov ularni «maxsus tur» tarzida ajratadi, hatto qarg'ish, so'kish va olqish janrlarini ham shu doirada qarashni taklif etadi. [Sarimsoqov, 1988; 84]

Folklor janrlarining yuzaga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim omillardan biri ijtimoiy ehtiyoj zaruriyatidir. Chunki voqelikning o'zi xilma-xil obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy - tarbiyaviy hamda estetik mohiyatini idrok etgan holda qay bir shaklda ifodalashni zaruriyatga aylantiradi. Aytaylik, o'tmishda uzoq ajdodlarning bosqinchilarga qarshi kurashi afsonalar yoki qahramonlik dostonlarini yuzaga keltirgan bo'lsa, tabiat kuchlari oldidagi ojizliklari so'z magiyasiga sig'inish asosidagi janrlarning bunyodga kelishini ta'minlagan. Demak, voqelik tabiati ifoda shaklini yuzaga keltirishga xizmat qilgan, bundan kelib

chiqadigan xulosa shuki, hayotkdagi turli-tuman, yanayam aniqrog'i, tasvirlanishi ko'zlangan voqelikdagi xilma-xillik janrlar rang-barangligini ta'min etadi.

Fransuz folklorida mavjud barcha janrlarning majmui tarixan vujudga kelgan yagona badiiy tizim (sistema) bo'lib xilma-xil tipdagi asarlarning murakkab va o'zigagina xos aloqalari hamda o'zaro ta'siri zahirida bunyod topgan. Marosimlarning shakllanishi va mavjudligi folklor taraqqiyotining eng muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. [Adizova, 2023; 1689]

«Bayram», «odat», «an`ana» kabi so'zlar «marosim» tushunchasi bilan bevosita bog'liq.

An`ana – o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan – avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir.

Odat ya'ni urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmalari. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalغانlar holidan xabar olish, yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining eng yaxshi milliy odatlari hisoblangan.

Marosim - bu ko'pincha an`ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadi, o'zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega. Masalan, aqiqa – ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, ekishga kirishish (urug' qadash) marosimi, o'ringa kirishish marosimi va hokazolar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, «an`ana», «odat», «marosim», tushunchalarining izohi bir-biriga bog'liq. Shu bilan bir qatorda an`analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim dir. «An`ana» va «odat» tushunchalariga nisbatan «marosim» ko'proq bayram bilan aloqadorroq. [Adizova, 1924; 16]. Ba'zi marosimlar (dafn qilish va qayg'uli hodisalardan tashqari) bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi marosimlar bayram kunidan tashqarida ham tashkil qilinsa, u bayram holatini vujudga keltirishi mumkin. Masalan, «chigit qadash», «diplom topshirish» marosimlarini bayram holatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, birinchidan, marosim bayramning tarkibiy yoki asosiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, ko'pgina marosimlar alohida o'tkazilganda ham bayram holatini vujudga keltiradi. Xullas, marosimlar folklori shu qadar boy va rang-barangki, ularning har biri o'ziga xos vazifasi, ijro o'rni va ijro usuliga ko'ra farqlanib turadi. Shuningdek, ularning har bir xalq va mamlakatdagi ijro usullari ham o'ziga xosdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova O. I. The exceptional in the works of Van Gennep. Special issue ijssir april 2023 issn 2277-3630 (online), published by international journal of social sciences & interdisciplinary research., comparative study of literature, comparative linguistics, translation studies ,2023y,121-126b
2. Adizova O.I.Folklorshunoslikka bir nazar. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to'plamini 30-aprel 2023-yil127-131b
3. Adizova O. I. Les contes biographiques et esthétiques. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938

4. Adizova O. I. Medieval Tales and Fairy Tales in the 17th Century. Journal of Survey in Fisheries Sciences 10(2S) 1689-1697, 2023 Skopus
5. Arnold Van Gennep Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec
6. Пропп В.Я. Фольклор и действительность. Избранные статьи. Москва: издательство «Наука», 1976, 16 стр
7. Narzullaeva, D. B. (2023, January). HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE QURAN INTO FRENCH. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 116-118). <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1495>
8. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janr sostavi // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik.1-tom. T.: «Fan», 1988, 82-83-b.